Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 7 (2026) Published July 31, 2026

FAITH AND REASON IN ISLAMIC PHILOSOPHY AND CHRISTIAN SCHOLASTICISM: A COMPARATIVE PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE VIEWS OF IBN RUSHD AND THOMAS AQUINAS

Iroda Rikhsivayevna Ikramova
Associate Professor of Tashkent State University of Oriental Studies, PhD
dr.iroda85@gmail.com

Abstract

The understanding of truth in the views of representatives of the Eastern mashshoiyyun direction is observed from subjectivity to substantiality, the issue of whether a person can know God from self-knowledge. In this case, ordinary truth should pave the way to divine truth and reveal its highest purpose and meaning of being and life. This article, based on the analysis of the concepts of Ibn Rushd, as a representative of Islamic philosophy, and Thomas Aquinas, as a representative of Christian scholasticism, on the relationship between faith and reason, sheds light on the connections and differences between their views on the relationship between religion and philosophy.

Keywords

Ibn Rushd, Thomas Aquinas, “Fasl al- maqāl”, “Summa theologiae”, faith, reason, sharia, philosophy.

ISLOM FALSAFASI VA XRISTIAN SXOLASTIKASIDA E'TIQOD VA AQL MASALASI: IBN RUSHD VA FOMA AKVINSKIY QARASHLARINING KOMPARATIV-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Haqiqatni anglash Sharq mashshoiyyuna yo‘nalishi vakillari qarashlarida subyektivlikdan substansionallikka qarab yo‘nalganligini, inson o‘zini o‘zi bilishidan Xudoni bilishga imkoni borligi masalasi kuzatiladi. Bunda Oddiy haqiqat ilohiy haqiqatga yo‘l ochishi va uning borliq va hayotning oliy maqsadi va ma’nosini ochib berishi kerak. Mazkur maqolada Islom falsafasi vakili sifatida Ibn Rushd va Nasroniy sxolastikasi vakili sifatida Foma Akvinskiyning e’tiqod va aql munosabatlari haqidagi konsepsiyalarini tahlil qilish asosida ularning din va falsafa aloqadorligi borasidagi qarashlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ibn Rushd, Foma Akvinskiy, “Fasl al- maqāl”, “Summa theologiae”, e’tiqod, aql, shariat, falsafa.

KIRISH. Islom jamiyatida aqliy harakatlar uch xil sohada: ilohiyot, tasavvuf va falsafada rivojlandi. Ular o‘zlarining tarixiy taraqqiyoti davomida eng yetuk g‘oyalarini ishlab chiqardilar, shu uch sohada o‘z klassikalarini yaratdilar va boshqa madaniyatlar rivojiga ijobiy ta’sir qildilar, shu tariqa o‘zlarining universalligini namoyon etdilar. Ayniqsa, sof falsafiy soha – mashshoiyyuna sohasida o‘z madaniy olami doirasida turli toifa va falsafiy oqimlarni yuzaga keltirgan islom tafakkuri ilm-fan va madaniy dunyomizning rivoji va boyishiga peshqadamlik qildi. G‘arb sxolastik tafakkuriga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib, Uyg‘onish davri harakatlarining paydo bo‘lishida ham katta rol o‘ynadi. Biz ushbu tadqiqotda islom tafakkurining eng buyuk mutafakkirlaridan biri Ibn Rushd va G‘arbning yetakchi sxolastik mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Avliyo Ioann Akvinskiyning falsafiy ta’limotlarini solishtirdik. Biz bu ikki faylasufning, biri islomiy, ikkinchisi nasroniy bo‘lgan faylasuflarning birinchisidan ikkinchisi qay darajada ta’sirlanganligini, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlar nimalardan iboratligini ochib berishga harakat qildik.

ASOSIY QISM. “Musulmon, yahudiy va nasroniy mutafakkirlarining ongini band etib kelgan va zamonaviy dunyoda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd ijodidagi asosiy masala: e’tiqod va aql o‘rtasidagi munosabatdir. E’tiqod aqlning harakatini oldini oladimi yoki cheklaydimi?”[1], O‘rta asr Sharq falsafasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi Peter Leuprecht “Aql, adolat va qadr-qimmat” nomli asarida Sharq va G‘arb falsafasining markaziy masalalaridan biri e’tiqod va aql aloqadorligi borasidagi o‘z xulosalarini bera olgan.

Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasida bir-biriga qarshi bo‘lmagan ko‘plab misollar mavjudligini, ta’kidlab o‘tgan. Aslini olganda, Ibn Rushdning mazkur risolasidagi maqsadlardan biri – falsafa va diniy mulohazalar haqiqatni ifodalashda bir-biriga mos va uyg‘un fikrlash usullari sifatida talqin qilishdir. Falsafa (hikma) va oyatlar (diniy bitiklar)ni ozaro mos bo‘lgan va bir-biriga zid bo‘lmagan munozarali shakllar sifatida tavsiflash bu dastlabki tavsif sanaladi. Biroq, bu

1 Peter Leuprecht. Reason, Justice and Dignity. Brill/Nijhoff, 2012. – P. 32.

Ibn Rushdning bu munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning o‘ziga xosligini ifodalamaydi. “Ibn Rushd fikridagi bu kabi diniy bitiklar va falsafa bir-biriga parallelligini va bir-biriga zid bo‘lmagan o‘zaro teng mantiqiy nuqtai-nazar sifatida bir xil hodisalarning natijasidir”[2], deb keltirib o‘tadi bu borada tadqiqotlar olib borgan Nauman Fayzi. Aynan shu xulosalariga asoslangan faylasuf o‘zining “Ikki haqiqat” konsepsiyasini keltirdi.

Bu nazariya din va falsafaning bir xilligini emas, aksincha, din va falsafaning butunlay boshqa mavzu va usullari borligini ta’kidlaydi. Demak, dinning predmeti Xudo, usuli esa e’tiqod, falsafaning predmeti esa tabiat, uning usuli esa tajribadir. Dinning o‘ziga xos haqiqatlari, falsafaning o‘ziga xos haqiqatlari mavjudligi din va falsafani mutlaqo boshqa sohalarda shug‘ullanishini, o‘zaro hech qanday umumiylik yo‘qligini bildirishi ajablanarli emas. Bundan tashqari, bu haqiqatlar nafaqat mumkin, balki turli xil va hatto qarama-qarshi bo‘lishi kerak. “Ularning bir-biriga mos kelmasligida noto‘g‘ri va g‘ayrioddiy narsa yo‘q: bu juda tabiiy, normal va tushunarli. E’tiqod va aql uyg‘unligi tarafdorlari ta’kidlaganlaridek, ular umuman qo‘shilmasliklari kerak shu bilan birga bu haqiqatlar ziddiyatli bo‘lishi mumkin emas, chunki ular qarama-qarshi va aslida mos kelmaydigan narsalar haqida gapiradilar”[3].

Shuni aytishimiz mumkinki, Andalusiya faylasufi o‘zidan oldingi va o‘zidan keyingi ko‘plab O‘rta va Yangi davrlar faylasuflari kabi dinni asossiz deb hisoblamagan. Hikmat va shariatning har biri bir-biriga muhtojligini va ularning har birining o‘z xalqi va ishonuvchilari borligini ta’kidlagan. Ibn Rushdni doimo ular orasida yarashtiruvchi mavqeida turganligini ko‘rshimiz mumkin. Ya’ni, bu munosabatda u har bir dinga e’tiqod qiluvchi insonning dinda tanlaydigan pozitsiyasini hamda oqilonalik, aqlning qadrini birgalikda olib qarab, o‘rta yo‘lni tanlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

“… Zero, do‘stning haqorati dushmandan chiqqan haqoratdan ham yomonroqdir. Aytmoqchimanki, falsafa dinning do‘sti (hamrohi) va sut singlisidir. Shuning uchun ham

---

2 Nauman Faizi. Averroes on the Relationship between Philosophy and Scripture: A Conditional Hierarchy// The Journal of Scriptural Reasoning. Volume: 15. Issue: 1. 2016/3. – P. 34.

3 Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. – М.: Наука, 1978. – С. 109.

ularga adovat, kelishmovchilik, nafrat aloqador deb da’vo qilganlarning g‘azabi eng achchiqdir. Aslida ular mohiyatida hamroh va tabiatan do‘stdirlar”[4]. Ibn Rushd din va falsafani o‘zaro uyg‘un ekanligini namoyish etishga harakat qilgan. Falsafa ham, din ham eng avvalo butun borliq va olamning oliy sababchisi bo‘lmish Xudo haqida tafakkur qiladi. Lekin ular tafakkur qilish uslubi jihatidan farq qiladi.

Ibn Rushd falsafiy xulosalar va Qur’on o‘rtasida hech qanday ziddiyat bo‘lishi mumkin emas, - deb hisoblaydi: “Bu din haqiqiy bo‘lib, bilimga yetaklovchi tadqiqni ma’qullagani bois, biz musulmonlar, aql yordamida o‘rganish Qur’on Karim o‘rgatuvchi narsalarga zid xulosalarga olib kelmasligini bilamiz”[5].

Demak, Ibn Rushd o‘zi zarur deb bilgan ishni yo‘lga qo‘ydi va ikki kitobini o‘zi erishmoqchi bo‘lgan maqsadiga bag‘ishladi: “Fasl al-maqāl”, “Din aqidalarida isbot usullarini oshkor qilish”. Bundan tashqari, u o‘zining “Raddiyani rad etish” asaridan turli vaziyatlarda va bir necha joylarda buning sababi va u qanday asoslarga asoslanishi kerakligini, e’tiqod bilan falsafa o‘rtasida qanday bog‘liqlik ko‘rishini bilish uchun bu ishlarga murojaat qilish natijasida bilib oldik. U “Ikki haqiqat” deb nomlagan ta’limotida o‘z davrida ikki qarama-qarshi sohaning har birining o‘ziga xos, individual usullari, vositalari, xulosalari mavjudligini tan olib, farqini ko‘rsatib o‘tib, biri ikkinchisi e’tirof etgan haqiqatni inkor etmasligi, balki taqozo etishi nazarda tutilganligi ma’lum bo‘ladi.

Ayni paytda arab-musulmon madaniyati ham qadimgi yunon fani va falsafasining eng kuchli davomchisi edi. O‘rta asrlardagi Lotin G‘arbining fikriga ko‘ra, u tahdid va muqarrar jozibani ifodalagan. Demak, yunon falsafasiga oid arab-musulmon asarlari Dominik Gundissalin va Kremonlik Gerardning dastlabki sa’y-harakatlari bilan Lotin xristian olamida tarjima qilinganlar.

“Aynan shu tarjima jarayoni ikki asrdan keyin Parijda yuksak madaniyatning haqiqiy inqirozini keltirib chiqardi. Taxminan 1230-yilda Ibn Rushd tomonidan talqin qilingan Arastuning muqaddimasi nasroniylarga koinot haqidagi ilmiy nuqtai nazarni

---

4 ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة, 2007. – ص .23.

5 ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة, 2007. – ص .2.

ochib berdi, bu ba'zi hollarda Injildagi diniy tasvirlardan yiroq edi"[6]. Inqiroz deb aytilishdan asosiy maqsad bu davrda Parijda averroizm yo'nalishi keng yoyilib bo'lgan edi. Aynan shu vaqt Foma Akvinskiy ham o'zining haqiqatga intiluvchi qobilyati bilan namoyon bo'ldi. U insoniy aqlga ishonish bilan birga ilohiyotda ham yetuk edi. Shuningdek, islom dini bilan ham muloqotda bo'lgan. Uning Arastuni diqqat bilan o'qishi, shuningdek, islom olamidagi Stagirita sharhlovchilariga bergan javoblari uning olim sifatidagi butun faoliyatini egallagan.

Ioann Pavel II "Fides et Ratio" (E'tiqod va aql) asarida Akvinskiyni "nafaqat qolganlarni o'rgatgani, balki o'z davrining arab va yahudiy tafakkuri bilan bo'lgan muloqoti uchun" alohida maqtaydi. Ioann Pavel II bu O'rta asr olimining o'z davrining tarixiy va madaniy kontekstida e'tiqod va aql o'rtasidagi davom etayotgan muloqotiga qo'shgan hissasini ko'rib chiqadi:

"Xristian mutafakkirlari antik falsafa xazinalarini, xususan, Arastuni qayta kashf etayotgan bir davrda Foma Akvinskiy imon va aql o'rtasidagi uyg'unlikka sharafli o'rinni belgilashda katta xizmatlari bor edi... Foma Akvinskiy tabiat, ayniqsa falsafaning to'g'ri talqini ilohiy Vahiyni tushunishga hissa qo'shishini tan oldi: "Imon aqldan qo'rqmaydi, balki uni izlaydi va unga ishonadi""[7].

Foma Akvinskiyning haqiqatan ham nasroniy bo'lmagan e'tiqodga ega bo'lgan faylasuflar ta'sirida bo'lishi va ularga murojaat qilishi ajablanarli bo'lishi mumkin, ayniqsa ular yahudiy va musulmonlar bo'lsa. Biroq, Akvinskiyning asosiy tashvishi haqiqatni izlashda ulardan o'rganish edi. Shu nuqtai nazardan, u o'zining "barcha haqiqat, kim aytmasin, Muqaddas Ruhdan keladi"[8] degan ishonchi orqali O'rta asrlarda o'rganishga bo'lgan hurmatni timsol qildi.

Devid Burrellning so'zlariga ko'ra, Foma Akvinskiy "imonidan ko'ra mutafakkirlarning fikr-mulohazalarini tekshirishga ko'proq moyil bo'lgan, ilohiy ijod izlarini topish uchun barchamizdagi yaratuvchining suratiga ishongan"[9]. Foma

6 Joseph Ellul. Religious discourse and Philosophy Ibn Rushd and Thomas Aquinas. – Msida: University of Malta, 2015. – P. 40.

7 Ioann Pavel II. Fides et Ratio (Imon va aql). – Vatican, 1998. – P. 43.

8 Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006. – С. 109.

9 Burrell D.B. Aquinas and Islamic and Jewish Thinkers// The Oxford Handbooks of Aquinas. – Oxford Acedemic books, 2012. – 69 p.

Akvinskiy o‘zining akademik faoliyati davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ko‘p marta e’tiqod va aql masalasiga to‘xtalib o‘tgan. U birinchi navbatda bu mavzuga bilvosita to‘xtalib, bu masalani Piter Lombardning “In quattuor libros Sententiarum” asarida yaratilish bahsi kontekstida muhokama qiladi. Keyinchalik u imon va aql masalasi haqida alohida fikr bildirib, bu mavzuga uch nuqtai nazardan yondashgan, ya’ni: aql asosida olingan xulosalar nasroniylik e’tiqodi haqiqatiga zid keladimi?; imon va aql orqali erishish mumkin bo‘lgan Xudo haqidagi bilim turi haqida; va e’tiqod masalalarini oqilona fikrlash orqali ko‘rsatish mumkinmi?

Foma Akvinskiy birinchi savolni muhokama qiladi, ya’ni aqlning haqiqati nasroniylik e’tiqodining haqiqatiga zid keladimi? U aqlning haqiqati nasroniy e’tiqodining haqiqatiga zid kelmasligining yettita sababini keltiradi.

Imon va aql bilan erishilishi mumkin bo‘lgan Xudo haqidagi bilimlar Foma Akvinskiyning “Summa Teologi” asarida xristian ilohiyoti boshqa fanlardan ko‘ra qimmatliroq ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni, aql aniqlikka ega emasligi uchun emas, balki inson aqli imon haqiqatlarini tushuna olmasligini aytib, ularni inson aqli chegaralaridan tashqarida ekanligini ko‘rsatadi:

“Nazariy fanlar ichida biri ikkinchisidan muhimroq sanaladi, birinchidan, u olib keladigan ishonchlilik, ikkinchidan, predmetining qimmatligi bilan. Ikkala holatda ham muqaddas ta’limot boshqalardan ustundir. Ishonchga kelsak, ularning aniqligi inson aqlining tabiiy nuridan kelib chiqadi, u xato qilishi mumkin, muqaddas ta’limotlarning aniqligi esa o‘zgaruvchan bo‘lmagan ilohiy ilm nuridan keladi”[10]. Aql xato qilishi mumkin deb, uni butunlay chegaralamaydi. Unga Xudo haqidagi bilimni olishni ta’qiqlanmaydi. Ammo, Xudo haqidagi bilimga aql vositasida erishish hammaga ham nasib qilmasligini ta’kidlaydi.

“Predmetining qadriga kelsak, ular faqat aql ostidagi narsalar bilan shug‘ullanadilar, muqaddas ilm esa aql ko‘tarilmaydigan cho‘qqilarga olib boradi. So‘ngra amaliy fanlar ichida kelajakdagi maqsadini ko‘zlagani yuksakroq turadi... Muqaddas ta’limot amaliy fan bo‘lgani uchun uning maqsadi abadiy baxtdir va bu

10 Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006. – С. 112.

barcha amaliy fanlarning maqsadlarini belgilab beruvchi oliy maqsaddir”[11]. U ilohiyotni amaliy fan, deb bilib, qolgan barcha amaliy fanlardan ustun ko‘radi.

E’tiqod masalalarini oqilona dalillar bilan isbotlash mumkinmi, degan savolga kelsak, Foma Akvinskiy xristian ilohiyoti falsafiy ta’limotga tayanishini “Summa Teologii” asarida tan oladi:

“Muqaddas ta’limot boshqa fanlardan olishi mumkin, ulardan so‘rash zaruratidan emas, balki u yetkazayotgan narsalarni yanada aniqroq qilish uchun. Chunki u o‘z tamoyillarini boshqa ilmlardan emas, balki vahiy orqali bevosita Xudodan oladi. Shuning uchun u ularga kuchli deb tayanmaydi, chunki ularning roli ikkilamchi va ikkinchi darajali ... Ularga bu tarzda murojaat qilish o‘z-o‘zidan biron bir kamchilik yoki yetishmovchilikdan kelib chiqmaydi, balki bizning aqlimiz yetishmasligi uchundir”[12]. Uning fikricha, imon haqiqatlari inson aqli yeta olmaydigan darajada uzoqdir. Biroq aql katolik e’tiqodi yolg‘on emasligini ko‘rsatishi mumkin, deya aqlni diniy e’tiqodni oqlash uchun foydasini aytib o‘tadi.

Foma Akvinskiy bu dalilga o‘z asarida qayta murojaat qilib, nasroniylik e’tiqodining inson aql-idrokidan ustunligini tasdiqlaydi:

“Garchi nasroniylik e’tiqodining haqiqati ... aql qobiliyatidan ustun bo‘lsa ham, inson aqli tabiiy ravishda bilishga ega bo‘lgan haqiqat xristian dinining haqiqatiga qarshi bo‘lishi mumkin emas. Zero, inson aqliga tabiat tomonidan berilgan narsa yuqori haqiqatdir. Shunday qilib, biz bunday haqiqatlarni yolg‘on deb hisoblay olmaymiz. Shuningdek, biz imon orqali qabul qilgan narsalarni yolg‘on deb hisoblay olmaymiz, chunki bu aniq ilohiy yo‘l bilan tasdiqlangan. Demak, faqat yolg‘on haqiqatga zid bo‘lganligi sababli, ularning ta’riflarini ko‘rib chiqishdan aniq ko‘rinib turibdiki, imon haqiqati inson aqli tabiiy ravishda tan oladigan tamoyillarga zid bo‘lishi mumkin emas”[13].

---

11 Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006. – С. 112.

12 Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006. – С. 113.

13 Фома Аквинский. Сумма против язычников. Книги I, II. /Перевод и примечания Т.Ю. Бородай. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2004. – С. 51.

Ibn Rushd musulmon mutafakkiri sifatida falsafa va dinni yarashtirishga eng ko‘p hissa qo‘shgan faylasufdir – bu mavzu O‘rta asr yahudiy va nasroniy mutafakkirlari tomonidan keng muhokama qilingan. Uning bu sohadagi muvaffaqiyati uning tizimli va ratsional faylasuf bo‘lganligi, shuningdek, taniqli islom huquqshunoslari oilasidan kelib chiqqanligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu unga ajoyib diniy ta’lim va islom huquqi bo‘yicha o‘z tajribasini berdi.

M. Xorten haqli ravishda ta’kidlaganidek, Foma Akvinskiy Ibn Rushdning din va falsafa o‘rtasidagi uyg‘unligini takrorlab, faqat ilohiy vahiy inson qalbini benuqson qilishi mumkinligini ta’kidlagan[14]. Taniqli nasroniy ruhoniysi sifatida u falsafa va dinni musulmon faylasuflariga qaraganda ko'proq g‘ayrat bilan yarashtirishga harakat qilgan. Biroq, Ibn Rushddan farqli o‘laroq, Avliyo Foma Akvinskiy bu ishga falsafiy emas, balki ilohiy nuqtai nazardan yondashgan[15].

XULOSA. Foma Akvinskiy garchand o‘z dini bo‘lmish nasroniylikni barcha dinlardan, e’tiqodlardan ustun qo‘ysa ham o‘z davri uchun yuqori darajada unga aql kerakligini ko‘rsata bila oldi. To‘g‘ri, u imonni birinchi o‘ringa qo‘ydi, biroq u bilan yonma-yon bir qatorda aql tushunchasini ham ishlata oldi. Aynan bu qarashlarida Ibn Rushdning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Foma Akvinskiy nasroniy cherkovi ta’siri hali pasaymagan bir davrda o‘z qarashlarida din bilan falsafani bir qatorga qo‘ya bilishi unga Ibn Rushdning din va falsafa munosabatida ratsional pozitsiyasi aks etganligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, endilikda Ibn Rushd va Foma Akvinskiy yondashuvlaridagi o‘xshashlik va farqlar haqida ma’lum xulosalar chiqarish mumkin. Ilohiy nuqtai nazardan, ikkisining avtoriteti mohiyatan bir xil, ya’ni aql (Arastu ma’nosida) va Muqaddas Yozuvdagi oshkor qilingan haqiqat o‘rtasidagi uyg‘unlik. Ularning ikkisi ham Arastu tafakkurini o‘zlarining diniy an’analariga qo‘shishga intildilar. Ikkisi ham bunday intilishlarga dushman bo‘lgan mutaassiblik muhitida bu yondashuvni qo‘llashga harakat qildilar.

---

14 Horten M. Die Hauptlehren des Averroes nach seiner Schrift; Die Widerlegung des Gazali. – Bonn: Marcus, 1915. – S. 334.

15 Etienne *Gilson*. The philosophy of St. Thomas Aquinas. – Cambridge: W. Heffer, 1924. – P. 23.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burrell D.B. Aquinas and Islamic and Jewish Thinkers// The Oxford Handbooks of Aquinas. – Oxford Acedemic books, 2012.
2. Etienne Gilson. The philosophy of St. Thomas Aquinas. – Cambridge: W. Heffer, 1924.
3. Horten M. Die Hauptlehren des Averroes nach seiner Schrift; Die Widerlegung des Gazali. – Bonn: Marcus, 1915.
4. Ioann Pavel II. Fides et Ratio (Imon va aql). – Vatican, 1998.
5. Joseph Ellul. Religious discourse and Philosophy Ibn Rushd and Thomas Aquinas. – Msida: University of Malta, 2015.
6. *Nauman Faizi.* Averroes on the Relationship between Philosophy and Scripture: A Conditional Hierarchy// The Journal of Scriptural Reasoning. Volume: 15. Issue: 1. 2016/3.
7. Peter Leuprecht. Reason, Justice and Dignity. Brill/Nijhoff, 2012.
8. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. – М.: Наука, 1978.
9. **Фома Аквинский. Сумма против язычников. Книги I, II.** /Перевод и примечания Т.Ю. Бородай. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2004.
10. Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006.
11. ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة, 2007.